

**HARAKATLI O'YINLAR ORQALI BOLANI HAR TOMONLAMA
TARBIYALASH VOSITASI SIFATIDAGI AHAMIYATI****Saparbaev Esen Tajibaevich** – *assistent o'qituvchi*saparbaevesen0@gmail.com*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti***ЗНАЧЕНИЕ ПОДВИЖНЫХ ИГР КАК СРЕДСТВА ВСЕСТОРОННЕГО
ВОСПИТАНИЯ РЕБЕНКА****Сапарбаев Эсен Тажибаевич** – *ассистент преподаватель**Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза***THE IMPORTANCE OF ACTIVE GAMES AS A MEANS
OF COMPREHENSIVE CHILD DEVELOPMENT****Saparbaev Esen Tajibaevich** – *assistant teacher**Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

Tayanch so'zlar: milliy o'yinlar, jismoniy tarbiya, o'yinlar, jismoniy rivojlanish, ko'nikma, o'qituvchi.

Rezyume. Muallif bu maqolasida jismoniy tarbiya bo'yicha turli ilimiy manbalardan foydalangan holda harakatli o'yinlarni obrazli tushintirish – asosiysi ta'sirchan amallarning biri ekanligini dalillab, bu ishlar asosan mazmunli obrazlarni so'zlab berishda juda zarur bo'lib, o'yin qatnashchilarning o'z vazifalarini to'g'ri bajarilishiga yordam beradi. O'quvchilar o'yinning mazmunini yaxshi o'zlashtirishi uchun yetakchi og'zaki tushintirishni amalda qo'llashi bilan uning ayrim harakatlarini bajarib ko'rsatish zarur ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ключевые слова: национальные игры, физическое воспитание, игры, физическое развитие, навыки, преподаватель.

Резюме. В данной статье автор используя различные научные материалы по физическому воспитанию, доказывает, что образное объяснение подвижных игр – является одним из важнейших факторов воздействия, что это дело особенно важно при рассказывании о содержательных играх и помогает участникам игры правильно выполнять поставленные перед ними задачи. Приводится информация о том, что для тщательного освоения учащимися содержания игры, необходимо применение на практике устного объяснения, то есть демонстрации различных действий игры.

Key words: folk games, physical education, games, physical development, skill, teacher.

Summary. In this article, the author, using various scientific materials on physical education, proves that the figurative explanation of outdoor games is one of the most important influencing factors, that this matter is especially important when talking about meaningful games and helps the participants in the game to correctly perform the tasks assigned to them. Information is provided that for students to thoroughly master the content of the game, it is necessary to use oral explanation in practice, that is, demonstrate various actions of the game.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida ta'lim, xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimidagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlar sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonning 2022 -2026- yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish ham aynan ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan [1].

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda mardlik, vatanparvarlik, Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, aholi orasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mana shuning uchun hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy rivojlanishiga aloqador bo'lganlar bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning yuksak darajada va turli xil tashkil qilinishiga katta ahamiyat berishi kerak. Bolalar va o'smirlar o'rtasida ommaviy jismoniy tarbiya ishlarini rivojlantirishda zamonaviy nazariy bilimlarini bilish va ularni amalda qo'llash, albatta, organizmning fiziologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'yinlarning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tarbiyasidagi

katta ahamiyati haqida N.K.Krupskaya qayta-qayta gapirgan edi. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun o'yin katta-katta ahamiyatga ega: o'yin ular uchun tarbiyaning jiddiy formasidir». N.K.Krupskaya fikrlarida o'yinning jismoniy kamolatlardagi ahamiyati haqida ham gapiriladi [3].

L.F.Artemova ma'lumotlariga qaraganda katta guruhlariga va ularni bajarishga ongli munosabat bolalarda asta-sekin va turli vaqtda hosil bo'ladi. Bolalar dastlab qoidalarni pedagog rahbarligida keyinchalik bolalar kollektivining qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini anglagan ayrim a'zolari ta'siri ostida asta sekin va turli vaqtda hosil bo'ladi. Bolalar dastlab qoidalarni pedagog rahbarligida keyinchalik bolalar kollektivining qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini anglagan ayrim a'zolari ta'siri ostida bajaradilar. Nixoyat qoidalar bolalarning ijtimoiy xulq-atvori normalarini bevosita belgilovchi omilga aylanadilar.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'yinlari taqlid qilish tabiatida bo'ladi. Bola tevarak-atrofdagi borliqni kuzatadi, undagi ba'zi narsalarni o'yiniga kiritadi va shu o'yin vositasida o'zini qurshab turgan olamni bilib oladi, binobarin, unda turmush hodisalariga nisbatan muayyan munosabat paydo bo'ladi. O'quvchi turmushdagi, mehnat sohasidagi tabiat hodisalari va jonivorlar hayotidagi har xil narsalarni taqlid qilib o'ynar ekan, bu hodisa va harakatlarning

ma'nosini anglay boradi, asta-sekin hayotiy tajriba orttiradi, qiyinchiliklarni yengishga o'rganadi, unda harakat ko'nikmalari hosil bo'ladi va tasavvur tobora boyib boradi.

Bundan tashqari, harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy jihatdan o'stirish uchungina emas, balki aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarda bolalarda maqsadga erishish uchun farosatlilik va qat'iyatlilik ko'rsatish, jamoa oldida, o'z xatti-harakatlari uchungina emas, balki o'rtoqlarining xatti-harakatlari uchun ham mas'uliyatni sezish xislatlari tarbiyalanadi.

Harakatlarning takomillashi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy eta boradi, yurak va nafas sistemasining faoliyati yaxshilanadi. Bundan tashqari, o'yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo'lishi uchungina emas, balki aqliy va axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun muhim bo'lishi ahamiyatga ega. Ko'plashib o'ynaydigan o'yinlarda bolalar maqsadga erishishi uchun farosatini va tadbirkorligi, qat'iyatini ko'rsatib jamoat oldida faqat o'zining emas, balki o'rtoqlarining xatti-harakatlari uchun ham javobgarlik hissini sezadigan bo'lishi kerak.

Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya darslarida hosil qilingan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. O'yinlardan foydalanishda faqat ularning elementlarini qanchalik tez bajarilganini emas, balki bajarilish sifatlarini ham alohida hisobga olish zarur. O'yin faoliyati qaysi formada ifodalanmasin bolani quvontiradi, harakatli o'yin favqulodda xursandchilikning xilma-xil mamentlari bilan, ayniqsa ijobiy hislar uyg'onishiga xizmat qiladi. Ulkan tarbiyaviy kuch ana shu quvonchli emotsiyalar manbayidir.

Jismoniy chiqintiradigan mehnat ko'nikmalarini rivojlantiradigan, ko'z mo'ljalini yaxshilaydigan, chaqqonlikni o'stiradigan ko'plab o'yinlar mavjud. Chaqqonlik kuchini nishonga tekkizishni o'stiradigan va mehnatga ulkan ahamiyatga ega bo'lgan shunga o'xshash barcha narsalarni maktabgacha tarbiya muassasalarida qo'llash favqulodda muhimdir.

Harakatli o'yinlar mazmunida bola dunyo qarashini kengaytiruvchi va tasavvurini aniqlashtiruvchi ko'plab materiallar mavjud. Syujetli o'yinlar tematikasini odamlar hayoti tabiat hodisilari hayvonlar odatlariga oid ayrim epizodlar tashkil etadi. Bularning hammasi bolalar tomonidan o'ziga xos shartli o'yin formasida aks ettiriladi. («Sayohatchilar», «uchuvchilar», «G'ozlar, oqqushlar» «Lochin va kurk tovuq» va boshqalar) biroq bola tashqi dunyoni to'g'ri idrok qilishi uchun (o'yinning barcha shartlariga rioya qilgan holda) obrozning to'g'ri xarakteristikasi va haqqoniyligi o'yin vaziyatini anglashga yordam beradi. Bu pedagog tomonidan o'yinni tushintirishda emotsional tarzda bayon etiladi [4].

Xalq o'yinlari buning ajoyib namunasi hisoblanadi. Ulardagi o'yin vaziyatlari bollarni qiziqtiradi va tarbiyalaydi, ba'zi o'yinlarda uchraydigan personajlar va ularning xarakatlarini bevosita xarakterlaydi. Syujetga ega bo'lmagan va faqat muayyan o'yin topshiriqlaridan tuzilgan o'yinlarda ham bolaning sensor qobiliyatini tafakkurini mo'ljal olinishi rivojlantirishning yordam beruvchi ko'plab bilish materiali mavjud. «Kim o'zar», «To'p maktabi» va boshqalar. Qoidalar tarbiyaviy ahamiyatga molik ular o'yinning borishini belgilaydi. Bolalar harakat faoliyatini ularning xatti-harakati o'zaro munosabatalarini yo'lga soladi. Axloqiy irodaviy sifatlarini tarbiyalashga yordam

beradi. Bunda bola o'yinga tegishli rahbarlik qilinganda o'ziga hosil qilingan sifatlarni namoyon qilmasdan turolmaydi. Masalan, bolalar «ayyor tulki» o'yinda faqat tulki «men shu yerdaman» deganidan so'nggina doiradan chiqib turli tomonlarga qochishlari mumkin. Bu qoida bolalarda diqqatni o'zini tuta bilishini, chidamlilikni. Berilgan signalga tezkor reaksiyani fazoda mo'ljal olishni hosil qiladi. Qoidalari og'ishmay bajarishni talab qilishni maqsadga erishishdagi egoistik emulsiyalarni engishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, N.K.Krupskaya ta'kidlaganidek dastlab bolalar ayrim vazifalarini tezroq bajarish payida bo'lib qoidalarni unitib qo'yadilar. Bundan tashqari, yutuqqa va bunga eng oson yo'l bilan erishishga intilish ham qoidani buzishga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida o'yinchilarda norozilik uyg'otadi, ziddiyat tug'iradi va bolalar o'rtasidagi munosabatni yomonlashtiradi.

Har bir bolaning o'yin qoidasini anglashi va unga rioya qilishida kattalarning talabi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Asta-sekin tarbiyaviy ta'sir qilish tufayli bolalarning o'yin jarayonida munosabati o'zgarib boshlaydi. O'yin harkatlari va qoidalarni bir muncha aniq bajarishga qiziqish va intilish paydo bo'ladi o'yin qoidalarni bajarmaslik sabablari ham o'zgaradi. Endi bolalar ularni atayin emas tasodifan buzadilar biroq shu zahoti yo'l qo'yilgan xatoni tuzatishga harakat qiladigan bo'ladilar.

Bolalarni qoidalarni ijtimoiy ahamiyatini anglashga sistemali chidam bilan tayyorlaydigan tarbiyachi rahbarligida ular halollik adolatlilik, do'stlik, botirlik, o'zini tuta bilish, qat'iyatlik, iroda kabi yaxshi sifatlarini shakllantirishning samalari vositasiga aylanadi. «Bola tomonidan asta sekin o'zlashtiradigan bunday hayotiy muhim axloqiy sifatlar bo'la shaxsining ichki ma'naviy mulkiga aylanadi». Bularning hammasi o'yin qoidalar bolalarni axloqiy tarbiyalashni ta'sirchan vositalaridan biri sifatida belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi [5].

O'yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish mavjud tafakkur tushuncha va mo'ljal olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi o'yinlar ijodiy hayot xayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish aktivligini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, harakatli o'yinlar bolalarning aqliy rivojlanishiga yordam beradi.

So'nggi yillarda mustaqillik tufayli millatimiz qadriyatlarini sifatida tanilgan o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarining mavqeyi va maqomi tamomila tiklandi, ular yana yoshlar tarbiyasidan o'rin oldi, turli milliy bayramlarimiz, tantana-yu marosimlarimizda keng qo'llanila boshladi. Ular ta'lim muassasalari o'quv rejalari tarkibiga fan sifatida kiritildi, ko'plab ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazila boshladi. «To'maris va Alpomish o'yinlari» festivallari dasturlaridan joy oldi.

Ma'lumki, yosh bolalarni sport bilan muntazam shug'ullanirishga jalb qilish tanlov asosida olib boriladi. Tanlov dasturining talablari bolani bo'yi, og'irligi, gavdasini tuzilishi – qomati kabi belgilarni aniqlash va ularga baho berishdan iborat. Bundan tashqari, tanlov, psixologik va jismoniy qobiliyatlarni baholovchi sinov vositalari yordamida qilinadi. Mazkur sinov natijalari u yoki bu sport turiga mos kelsa, bola shu sport turiga shu sport bilan shug'ullanishga qabul qilinishi maqsadga muvofiq deb topiladi. Bu masalaga to'g'ri yondoshish demakdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, respublikaning yaratilgan. Tabiat in'om etgan yaxshi iqlim barcha xududlarida geografik tuzilishlarga nisbatan kunlaridan bolalar, yoshlar va umuman barcha yoshdagi o'ziga xos turli tuman iqlim sharoitlari mavjud. Yilning kishilar ochiq havzada sayr qilish, futbol o'ynash, barcha fasllarida jismoniy tarbiya va sport sayohat va yugurishlarda turli harakatli o'yinlar bilan shug'ullanishga xalq milliy o'yinlari bilan shug'ullanish imkoniyatlari odatlanmoqda.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: «O'zbekiston», 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.
3. Крупская Н.К. Педагогические сочинения в десяти томах. – Москва: Изд-во АПН. 1958. Т. 2. Общие вопросы педагогики. Организация народного образования в СССР.
4. Usmonxojayev T.S., Xojaev. F. Harakatli o'yinlar. – Tashkent: «Ilm-Ziyo», 1992.
5. Normurodov A. N. O'zbek milliy o'yinlari. – Toshkent: «O'qituvchi», 1999.